




**Texnikumni bitiruvchi abituriyentlarga “Turizm va mehmondo‘stlik” ta’lim yo‘nalishi
bo‘yicha qo‘yilgan talablar va ularning baholanishi:**

Baholash 100 balli sistemada olib boriladi. Bitta abituriyentga jami to‘rtta savol, har bir savolga maksimal 25 ball dan qo‘yiladi va quyidagicha taqsimlanadi.

Abituriyentning bilim darajasiga qo‘yilgan talablar	Ball
- savolga atroflicha, aniq va to‘g‘ri javoblar bersa; - sohaga oid islohotlar to‘g‘risidagi ma’lumotlardan xabardorligi; - sohaga tegishli qonun va qoidalar, tushuncha va atamalarni to‘g‘ri va aniq ifodalay olsa; - yo‘nalishni tanlashda kasbning mohiyatini va ijtimoiy ahamiyatini to‘g‘ri va aniq tasavvur qila olishi; - kasbga doir qaror qabul qilishda ma’suliyatlilik, mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlarining mavjud ekanligi; - tanlangan yo‘nalish bo‘yicha yetarlicha bilim va kasbiy ko‘nikmalar mavjud bo‘lsa;	“21-25”
- savolga atroflicha cheklangan lekin to‘g‘ri javoblar bersa; - sohaga oid islohotlar to‘g‘risidagi ma’lumotlardan xabardorligi; - sohaga tegishli qonun va qoidalar, tushuncha va atamalarni to‘g‘ri ifodalay olsa; - yo‘nalishni tanlashda kasbning mohiyatini va ijtimoiy ahamiyatini tasavvur qila olsa; - kasbga doir qaror qabul qilishda ma’suliyatlilik, mustaqillik darajasining mavjud	“16-20”

ekanligi; - tanlangan yo‘nalish bo‘yicha yetarlicha bilim va ko‘nikmalar mavjud bo‘lsa;	
- savolga tor doirada cheklangan javob bersa; - sohaga oid islohotlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarda noaniqliklar kuzatilsa; - sohaga tegishli qonun va qoidalar, tushuncha va atamalarni to‘g‘ri ifodalay olmasa; - yo‘nalishni tanlashda kasbning mohiyatini va ijtimoiy ahamiyatini yoritishda chalkashliklar kuzatilsa; - kasbga doir qaror qabul qilishda ma‘suliyatlilik, mustaqillik darajasining qisman mavjud ekanligi; - tanlangan yo‘nalish bo‘yicha yetarlicha bilim va ko‘nikmalar yetarli darajada bo‘lmasa;	“11-15”
- savolga tor doirada cheklangan darajada yoki boshqa javoblar bersa; - sohaga oid islohotlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarda noaniqliklar kuzatilsa; - sohaga tegishli qonun va qoidalar, tushuncha va atamalarni to‘g‘ri ifodalay olmasa; - yo‘nalishni tanlashda kasbning mohiyatini va ijtimoiy ahamiyatini yoritishda chalkashliklar kuzatilsa; - kasbga doir qaror qabul qilishda ma‘suliyatlilik, mustaqillik darajasining qisman mavjud ekanligi; - tanlangan yo‘nalish bo‘yicha yetarlicha bilim va ko‘nikmalar yetarli darajada bo‘lmasa;	“6-10”
- berilgan savollar to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lmasa va javob bera olmasa;	“0-5”

“Turizm” kafedrasi mudiri:



D.I.Ibadullayev